O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 1 - noyabr 291-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 28-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi 475-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida” 480-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qarori asosda qabul qilinga Toshkent viloyati hokimining **2023 yil 28 sentabrdagi 480-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash,** “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining **2023-yil 28-sentabrdagi 480-10-0-Q/23-sonli qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan Yoqilg‘i-energetika resurslarining 2023-yil 1-oktabrdan kuchga kiradigan narxlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi 22-sonli qaroriga muvofiq elektr energiyasining yirik iste’molchilari — yuridik shaxslar tomonidan tungi davrda (soat 2200dan 2400 gacha va soat 0000 dan 0600 gacha) foydalanilgan elektr energiyasi uchun to‘lovlar belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda kamayuvchi koeffitsientni qo‘llash orqali hisob-kitob qilinishi o‘rnatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari S.Mirsagatov issiqlik ta’minoti, suv ta’minoti va oqova suv xizmatlariga, shahar yo‘lovchilar tashish transportida *(bundan yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar mustasno)* yo‘lovchilar tashish xizmatlariga yangi tariflarni belgilash tavsiya etilsin.

3.1. Shuningdek, qaror bilan issiqlik ta’minoti xizmatlarining aholi uchun belgilanadigan narxlari joriy kuz-qish mavsumida oshirilmasligi belgilanganligi inobatga olinsin;

3.2. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) mazkur bandda belgilangan tariflarni qayta ko‘rib chiqishda narxlarning asossiz oshib ketishining oldini olish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman prokuraturasi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hududiy bo‘limi, Davlat soliq inspeksiyasi avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor shoxobchalarida:

o‘rnatilgan gaz hisoblash uskunalari tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimiga to‘liq ulanganligini va onlayn rejimda ma’lumotlar uzatilayotganligini qat’iy nazorat qilib borsin;

noqonuniy ulanish, yoqilg‘i-energiya resurslarini talon-toroj qilish va noqonuniy iste’mol qilishning boshqa holatlarini, shuningdek, ularni sodir etishga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha nazorat tadbirlarini yanada kuchaytirsin;

tabiiy gazni sotishda uning eng baland chakana narxi kelgusi olti oyda bir kub metr uchun 3 250 so‘mdan oshib ketmasligi bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rsin.

Bunda, onlayn rejimda ma’lumotlar uzatmayotgan, chakana sotishda cheklangan narxning asossiz oshirilishiga, noqonuniy ulanishga, yoqilg‘i-energiya resurslarini talon-toroj va noqonuniy iste’mol qilinishiga yo‘l qo‘ygan avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor shoxobchalariga tabiiy gaz yetkazib berishni to‘xtatish choralari ko‘rilsin.

5. Ushbu qaror 2023-yil 1-oktabrdan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Salixov va tuman hokimining o‘rinbosarlari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**